

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG‘ONA FILIALI**

“TASDIQLAYMAN”
TATU Farg‘ona filiali direktori
_____ **A.Rasulov**

**Ikkinchi oliy ta‘limga qabul bo‘yicha TATU Farg‘ona filialiga
yakka tartibdagi suhbat asosida qabul qilish bo‘yicha**

BAHOLASH MEZONI

(Filial Kengashining 11-son 04.07.2022 Qarori bilan tasdiqlangan)

QABUL BO‘YICHA MUTAXASSISLIKLAR

| Mos bakalavriat ta‘lim kodi va yo‘nalishi |
|---|
| 60610501 - Kompyuter injiniringi: Kompyuter injiniringi |
| 60610502 - Kompyuter injiniringi: AT-Servis |
| 60610600 - Dasturiy injiniring |
| 60610300 - Axborot xavfsizligi (sohalar bo‘yicha) |
| 60611000 - Telekommunikatsiya texnologiyalari: telekommunikatsiyalar |
| 60611300 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta‘limi |
| 60310500 - Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Baholash mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentyabrdagi 606-son Qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limni olish tartibi to‘g‘risida NIZOM» talablari asosida ishlab chiqilgan hamda oliy ta‘lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilarni (keyingi o‘rinlarda – bitiruvchilar) o‘z sohasiga mos bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filialining 2-bosqichidan o‘qishini davom ettirish uchun qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘z sohasiga mos bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari ro‘yxati asosida oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filialiga kirish imtihonlarisiz, ushbu hujjatda keltirilgan baholash mezonlari asosida yakka tartibdagi suhbat orqali sinovdan o‘tkaziladilar.

3. Quyidagi talablarga javob bergan talabalar yakka tartibdagi suhbat jarayonlarida qatnashish huquqiga ega bo‘ladilar:

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi zarur.

2-bob. Suhbatning maqsadi

4. Suhbatning maqsadi oliy ta‘limda o‘qish istagini bildirgan oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilaridan mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, shaxsiy yutuqlari bilan o‘rnak bo‘la oladigan, mutaxassisligi bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi va mohiyatini tushuna olishi, ularni o‘zining bo‘lajak sohasi uchun tadbiq eta olishi hisoblanadi.

3-bob. Suhbat jarayoni tartibi

5. Yakka tartibdagi suhbat uchun savollar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

– mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

– bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish);

– shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas‘uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

– tanlangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi.

7. Bitiruvchi yakka tartibdagi suhbatga shaxsiy-kasbiy xususiyatlari, shaxsiy yutuqlari, muvaffaqiyatlari, sohasi hamda qo‘shimcha bilim, tajriba va ko‘nikmalarni o‘zlashtirganlik bo‘yicha erishgan natijalari hamda boshqa qiziqishlariga oid hujjatlarni portfolio tartibida tayyorlab kelishi talab etiladi.

8. Yakka tartibdagi suhbat bitiruvchining shaxsan ishtirokida o‘tkaziladi. Bunda bitiruvchi suhbat uchun tayyorlab kelgan hujjatlari portfoliosini Suhbat komissiyasiga taqdim etadi.

9. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgor suhbat komissiyasi tomonidan oldindan tasdiqlab qo‘yilgan biletlardan birini ixtiyoriy ravishda tortadi. Tanlangan biletning raqamini Suhbat komissiyasiga eshittiradi. Suhbat komissiyasi talabgorga suhbatga tayyorlanish uchun 10 minut vaqt beradi. Vaqt yakunlanganidan so‘ng talabgor suhbatdan o‘tadi.

10. Bitiruvchi tomonidan tayyorlangan portfolioning haqiqiyiligi bitiruvchi javobgar bo‘lib, yakka tartibdagi suhbat jarayonida qabul komissiyasi a‘zolari tomonidan o‘rganib

chiqiladi. Portfolioning haqiqiylikini bilish uchun talabgorga qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

11. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a‘zosiga ushbu Mezonning **1-ilovasiga** muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag‘i (keyingi o‘rinlarda – suhbat natijalarini qayd etish varag‘i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a‘zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag‘iga har bir bitiruvchi bilan o‘tkazilgan suhbat natijasiga ko‘ra tegishli ballar belgilab boriladi va imzolanadi.

12. Muayyan ta‘lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a‘zolari tomonidan to‘ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar qo‘shib jamalanadi hamda komissiya a‘zolari soniga nisbatan o‘rtacha ball hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Mezonning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o‘tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘i (keyingi o‘rinlarda – suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘i) to‘ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Talabgor tomonidan jami to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi 67 ball va undan yuqori bo‘lganda abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

Muayyan ta‘lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat natijalariga ko‘ra suhbatdan o‘tganlar ro‘yxati shu kunning o‘zida abituriyentlarga o‘qib eshittiriladi.

13. Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘iga asosan talabalikka tavsiya etilganlar belgilangan muddatlarda to‘lov-kontrakt shartlari bajarilgandan so‘ng oliy ta‘lim muassasasi rektorining buyrug‘i bilan muayyan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining 2-bosqichiga o‘qishga qabul qilinadi.

14. Suhbat komissiyasi tomonidan talabgorlarni baholash mezonlari quyidagicha taqsimlanadi (3-ilova):

| № | Savollar | Ball |
|----------|---|-------------|
| 1-savol. | Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish | 25 ball |
| 2-savol. | Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish) | 25 ball |
| 3-savol. | Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas‘uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) | 25 ball |
| 4-savol. | Tanlangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi | 25 ball |

Berilgan savollariga talabgorning javobini baholash me'zoni

| № | Baholash me'zonlari | Ball |
|---|--|-------|
| 1 | Qo'yilgan savolga talabgor tomonidan to'liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida ongli bilimlar to'plami ko'rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Bunda tushunchalarni ifodalashda, javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda tuzatilgan xatolar bo'lishi mumkin. | 22-25 |
| 2 | Savolga to'liq, batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin | 18-21 |
| 3 | Yetarlicha to'liq va yetarlicha batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilganda. Tushunchalarni ochishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarni, sabab-natija munosabatlarini mustaqil ravishda aniqlay olmaganda. U umumlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda. | 14-17 |
| 4 | Talabgor savol mavzusi bo'yicha ta'riflarda sezilarli xatolar bo'lgan tarqoq bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lmagan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savoldagi asosiy tushuncha, nazariya va hodisalarni boshqalari bilan bog'liqligini anglamaganda. Xulosa, konkretlashtirish va qoida hamda jarayonlarning isboti mavjud bo'lmaganda. Saviyasi nisbatan past nutqqa ega bo'lganda. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu b'yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda. | 0-13 |

15. Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriyat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

4-bob. Apellyatsiya berish tartibi

16. Suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

17. Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

18. Mazkur baholash mezonini qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

19. Ushbu baholash mezonini talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

**Oliy ta'lim muassasalarini tamomlaganlar bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialiga o'qishga kirish
imtihonlaridagi suhbat natijalarini qayd etish varag'i**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG'ONA FILIALI**
(oliy ta'lim muassasasi nomi)

(ta'lim yo'nalishi nomi)

(ta'lim shakli)

(ta'lim tili)

(sana)

| T/r | Bitiruvchining F.I.O. | Bitiruvchiga qo'yilgan ball | | | | | Suhbat komissiyasi a'zosining imzosi |
|-----|-----------------------|-----------------------------|---------|---------|---------|---------|---|
| | | Jami | 1-savol | 2-savol | 3-savol | 4-savol | |
| 1. | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | |
| ... | ... | ... | ... | ... | ... | ... | ... |

Suhbat komissiyasi a'zosi:

(F.I.Sh)

(imzo)

**Ikkinchi oliy ta'limga qabul bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish
imtihonlarida o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG'ONA FILIALI**
(oliy ta'lim muassasasi nomi)

_____ (ta'lim yo'nalishi nomi)

_____ (ta'lim shakli)

_____ (ta'lim tili)

_____ (sana)

| T/r | Bitiruvchining F.I.O. | Komissiya a'zolari soni | Jami to'plagan bali | O'rtacha bali |
|-----|-----------------------|-------------------------|---------------------|---------------|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| ... | ... | ... | ... | ... |

Suhbat komissiyasi raisi: _____ (F.I.Sh) _____ (imzo)

Suhbat komissiyasi a'zolari: _____ (F.I.Sh) _____ (imzo)

_____ (F.I.Sh)

_____ (imzo)

_____ (F.I.Sh)

_____ (imzo)

_____ (F.I.Sh)

_____ (imzo)

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentyabrdagi 606-son
Qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida
ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida NIZOM»ga asosan
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg‘ona filialiga topshirmoqchi bo‘lgan oliy ta’lim muassasalarini tamomlaganlar
uchun tayyorlangan
NAMUNAVIY SUHBAT SAVOLLARI**

1-savol. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

2-savol. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish).

3-savol. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).

4-savol. Tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi:

I. 60610501 - Kompyuter injiniringi: Kompyuter injiniringi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (o‘zbek):

1. Kompyuter turlari va xususiyatlari.
2. Turli xil soxalar uchun mo‘ljallangan kompyuterlar va kompyuter tizimlari.
3. Zamonaviy kompyuterlarning konfiguratsiyasi va ularning qo‘llanilish sohalari.
4. Xotira turlari va vazifalari.
5. Asosiy xotira va ularning asosiy ko‘rsatkichlari.
6. Intel va AMD protsessorlari va ularning asosiy farqlanishi.
7. Kompyuter tarmoqlarining turlari va vazifalari.
8. Axborot tizimlari nima va uning tarkibi qismlariga nimalar kiradi?
9. Elektron hukumat va davlat xizmatlari deganda nima tushuniladi?
10. Maxalliy va xalqaro AT sohasi bozori, tendentsiyalar, yangi ish o‘rinlarini paydo bo‘lishi shartlari.
11. Kompyuter tizimining asosiy tushunchalari.
12. Kompyuter turlari va xususiyatlari.
13. Kompyuterlarning asosiy ko‘rsatkichlari.
14. Kompyuterlar arxitekturasi va ularning ko‘p satxli tashkil qilinishi.
15. Kompyuterlar va hisoblash tizimlariga qo‘yiladigan umumiy talablar.
16. Turli xil soxalar uchun mo‘ljallangan kompyuterlar va kompyuter tizimlari.
17. Xozirda ishlab chiqarilayotgan shaxsiy kompyuterlarning protsessorlari va ularning xususiyatlari.
18. Mobil tizimlar uchun mo‘ljallangan protsessorlar.
19. O‘rnatilgan tizimlarda qo‘llaniladigan protsessorlar.
20. Zamonaviy kompyuterlarning konfiguratsiyasi va ularning qo‘llanilish sohalari.
21. Kompyuterlarni tashkil qilishning raqamli-mantiqiy asoslari.
22. Zamonaviy shinalarning xususiyatlari.
23. Xotira turlari va vazifalari.
24. Dinamik va static xotira tizimlari.
25. Asosiy xotira va ularning asosiy ko‘rsatkichlari.
26. Registrlil xotira va kesh xotiraning darajalanishi.
27. Tashqi qurilmalarning turlari va vazifalari.
28. Boshqaruv blokining vazifalari qaysilar?

29. Raqamli signal protsessori nima uchun ishlatiladi?
30. Kompyuter tarmoqlarining turlari va vazifalari.

(rus):

1. Типы компьютеров и их характеристики.
2. Компьютеры и компьютерные системы, предназначенные для различных областей.
3. Конфигурация современных компьютеров и области их применения.
4. Типы и функции памяти.
5. Основная память и их основные индикаторы.
6. Процессоры Intel и AMD и их основные отличия.
7. Виды и функции компьютерных сетей.
8. Что такое информационные системы и каковы их компоненты?
9. Что понимается под электронным правительством и государственными услугами?
10. Местный и международный рынок ИТ-сектора, тенденции, условия появления новых рабочих мест.
11. Основные понятия вычислительной системы.
12. Типы компьютеров и их характеристики.
13. Основные показатели компьютеров.
14. Архитектура ЭВМ и их многоуровневая организация

II. 60610502- Kompyuter injiniringi: AT-Servis yo'nalishi bo'yicha savollar to'plami:

1. Elektron hukumat va davlat xizmatlari deganda nima tushuniladi?
2. Simsiz tarmoq texnologiyalarini sanab bering?
3. Ma'lumotlar bazasi deganda nima tushunasiz?

III. 60610600-Dasturiy injiniring yo'nalishi bo'yicha: (o'zbek)

1. (siz bilgan) Dasturlash tilida ma'lumot turlari qanday ifodalanadi, misollar keltiring.
2. (siz bilgan) Dasturlash tilida takrorlanuvchi jarayonlarni tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
3. Modulli dasturlash nima, boshqa dasturlash usullaridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Butunjahon Internet tarmog'i (WWW) va "Web standartlari" tarixi
5. Server web -ilovalari, web –xizmatlar deganda nimani tushunasiz?
6. Kompyuter tarmoqlari turlari: mahalliy, mintaqaviy, global. Tarmoq topologiyasi tushunchasi.
7. Tarmoq texnologiyalari va ma'lumotlarni uzatish vositasiga kirish usullari
8. Tarmoq kabellarining turlari va xususiyatlari. Kabel standartlari.
9. Axborotni huquqiy himoya qilish.

(rus):

1. Что такое модульное программирование и чем оно отличается от других методов программирования ?
2. История всемирной паутины (WWW) и веб-стандартов

IV. 60610300-Axborot xavfsizligi yo‘nalishi bo‘yicha:

1. Axborot xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot xavfsizligining vazifalari nimalardan iborat?
3. Axborot xavfsizligi va axborotni himoyalash tushunchalarini bir-biridan farqi?
4. bir – biridan farqini ayting.
5. Ma‘lumotlarni yaxlitligini ta‘minlash usullari haqida ayting.
6. Axborotni fizik xavfsizligiga ta‘sir qiluvchi tabiiy va sun‘iy omillarni aytib bering.
7. Kompyuter viruslari nima va ularga misollar ayting.
8. Kompyuter viruslarini tizimlashtirish.

IV. 60611000-“Telekommunikatsiya texnologiyalar (telekommunikatsiyalar)” yo‘nalishi bo‘yicha:

(o‘zbek):

1. Telekommunikatsiya tarmog‘i vositalariga nimalar kiradi?
2. Telekommunikatsiya so‘zining ma‘nosini tushuntirib bering?
3. Raqamli kommutatsiya tizimining tuzilishi va ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
4. Analog signalni raqamli signalga o‘zgartirish jarayonini tushuntirib bering?
5. Telefon apparatining ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
6. Optik tolali kabelni payvandlash jarayonini tushuntirib bering?
7. Signal deb nimaga aytiladi va uning qanday turlari mavjud?
8. Optik aloqa kabellarining imkoniyatlari, qo‘llanilishi va tuzilishini tushuntirib bering?
9. Telefon apparatining ishlash tamoyilini tushuntirib bering?
10. Signal deb nimaga aytiladi va uning qanday turlari mavjud?

(rus):

1. Что такое инструменты телекоммуникационной сети?
2. Объясните значение слова телекоммуникации?

VI. 60310500-Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

1. Bozor iqtisodiyotining mazmunini tushuntirib bering?
2. Zamonaviy iqtisodiyotda mulkchilik shakllarini aytib bering?
3. Marketingni qaysi turlarini bilasiz?
4. Talab va taklif ma‘nosini tushuntirib bering?

VII. 60611300-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta‘limi yo‘nalishi bo‘yicha:

1. Elektron ta‘lim resurslari turlarini ayting va ular qanday yaratiladi.
2. Bulutli texnologiya bo‘yicha nimalarni bilasiz.
3. Power point dasturida taqdimotlar qanday yaratiladi.